

# XALQ TA'LIMI

---

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

---

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL  
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**2021**

**6**

**maxsus son**

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqsa boshlagan  
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



## TAHRIRIYAT

<b>4</b>	Musiqa ta'lmini ommaviylashtirish – shaxs rivojlanishini ta'minlashning fundamental asosi
----------	---



## TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

<b>A. Qudratova</b> <b>N. Berdiqulova</b> <b>Z. Jo'rayeva</b> <b>B. Boltayev</b> <b>Sh. Mustafayev</b> <b>M. Maxmudova</b> <b>K. Suvonova</b>	<b>6</b> <b>10</b> <b>13</b> <b>17</b> <b>20</b> <b>25</b>	Ta'lim jarayonida funksional savodxonlikni shakllantirishning metodologik asoslari Boshlang'ich sinf o'quv jarayonida ta'lim integratsiyasi mazmuni-mohiyati va uning turlari Texnologik kompetentlikni rivojlanirishda texnologiya fanlarining didaktik imkoniyatlari Millatlararo totuvlik hissini shakllantirishda badiiy to'garak rahbarining kompetentiligi "Art" pedagogikaning tarbiyaviy resurslari Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodkorlikni rivojlanirish muammosi
---	---	---



## TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

<b>H. Qoraboyev</b> <b>Z. Raxmanova</b> <b>N. Shodiyev</b> <b>M. Fayziyev</b> <b>D. Nabiyeva</b>	<b>29</b> <b>33</b>	O'qish darslarida o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlanirishda mustaqil topshiriqlarning o'rni Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini iqtisodiy ta'limga tayyorlashning metodik asosi
<b>G. Eshqobilova</b>	<b>37</b>	Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim matematika darslarida vaqt tushunchalarini o'rgatishning uzviyligini ta'minlash
<b>A. Karimov</b>	<b>41</b>	"Qurilishda axborot texnologiyalari" fanidan amaliy va mustaqil mashg'ulotlarni tashkil etishga qo'yildagan asosiy pedagogik talablar



## TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYATI

<b>Sh. Javliyeva</b>	<b>45</b>	O'qituvchilar kasbiy faoliyatini rivojlanirishning asosiy ko'satgichlari
----------------------	-----------	--



## ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

<b>D. Qarshiyeva</b> <b>Z. Qarshiyeva</b> <b>E. Shavqiyev</b>	<b>49</b> <b>53</b> <b>56</b>	Uzluksiz kasbiy rivojlanirish tizimida "kvest" darslarini loyihalash tamoyillari Bo'lajak o'qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlanirish modelining tamoyillari Rangshunoslik fani bo'yicha ta'lim sifatini oshirishda yangi pedagogik texnologiyalarining ahamiyati
---	-------------------------------------	--



## MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

<b>N. Shodiyev</b> <b>D. Nabiyeva</b>	<b>60</b>	Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematik ta'lim orqali ma'naviy tarbiyalash
<b>S. Pardayev</b>	<b>65</b>	Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni targ'ibot qilishda texnologik diversifikasiyaning ahamiyati
<b>D. Nabiyeva</b>	<b>69</b>	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integral yondashuv asosida ma'naviy-axloqiy kompetenliklarini takomillashtirish
<b>S. Igamov</b>	<b>73</b>	Umumiy o'rta ta'lim maktablari texnologiya darslarida xalq hunarmandchiligidagi o'rganishning o'ziga xos jihatlari



## MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH

N. Abdumannotova **76** Pedagoglarning kasbiy faoliyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimining ahamiyati

M. Raximqulova **79** Malaka oshirish jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining uzuksiz kasbiy kompetentligini takomillashtirish



## MADANIYAT, SAN'AT VA MUSIQA TA'LIMI

J. Xodjayev **83** Maktab o'quvchilarida musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishining ayrim masalalari

D. Samatova  
Sh. Omanqulova **87** Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentiligini takomillashtirish texnologiyalari

G. Davronova **91** Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini hamkorlikda o'qitish texnologiyalari asosida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari

O. Shodiyeva **95** Musiqiy-ritmik harakatlar – barqaror rivojlanishning muhim omili safatida

Sh. Oydinov **99** Rangtasvida qisqa muddatli ranglavhalar ishlashning ahamiyati

I. Qudaratov  
M. Murodov **103** Fanlararo aloqalar – bilimlarni boyitish omili



## ATROF-MUHIT MUHOFAZASI VA EKOLOGIK XAVFSIZLIK

M. Nuriddinova **107** Tabiatshunoslik darslarida o'quvchilarga ekologik madaniyatni shakllantirishga qo'yiladigan didaktik talablar



## TA'LIMDA MUTOLAA MADANIYATI

M. Narziqulov **110** O'zbek-tojik poeziyasida g'azal janri (Ja'far muhammad g'azaliyoti misolida)



## ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

B. Elmurodov  
J. Haydarov **114** O'quvchilarning intellektual salohiyatini shakllantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga qo'yiladigan talablar

M. Fayziyev **118** Talabalarga axborot texnologiyalarini o'rgatish jarayonida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish



## PSIXOLOGIYA

G. Atoyeva **121** Mehnat munosabatlarda o'smirlarni huquqiy-psixologik muhofaza qilish



## KORREKSION PEDAGOGIKA

X. Muzaffarov  
G. O'rqaqova **125** Imkoniyati cheklangan bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbyiya ishlari mazmunini takomillashtirish

R. Eshimov **129** 6-sinf "Fizika" darsligini imkoniyati cheklangan ta'lim oluvchilar uchun kompyuter imitatsion modellar asosida shakllantirish



## XALQ PEDAGOGIKASI

D. Omonov  
Z. Istamov **132** "Afrosiyob"ning qadimgi san'ati va tarixi



## ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Д. ЮЛДАШЕВА **136** Двуязычия и когнитивные способности мозга при двуязычии



## ПСИХОЛОГИЯ

С. ХОЛБОЕВА **139** Подготовка молодежи к семейным отношениям как психолого-педагогическая проблема

**Xayitgul MUZAFFAROVA,**

Jizzax davlat pedagogika instituti, "Maxsus pedagogika" kafedarasi katta o'qituvchisi

**Gulbahor O'RAQOVA,**

Jizzax davlat pedagogika instituti, "Defektologiya" yo'naliishi magistratura talabasi

## **IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN TA'LIM-TARBIYA ISHLARI MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH**

### **Annotatsiya**

Maqolada imkoniyati cheklangan bolalar bilan olib boriladigan ta'limiyy-tarbiya ishlarini olib borish, ular rivojlanishida hayotiy maromni ta'minlovchi to'g'ri, jismoniy va aqliy-ruhiy o'sishi uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratuvchi tartib, maqsadga muvofiq odatlarni shakllantirish haqidagi fikr mulohazalar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar.** Defektolog, aqli zaif bola, ko'nikma, motorika, harakat, sanitariya, gigiyena.

В статье изложены размышления о проведении коррекционной учебно-воспитательной работы с умственно отсталыми детьми, о порядке, обеспечивающем жизненный ритм в их развитии, создающем необходимые условия для правильного физического и психоэмоционального роста, о формировании целенаправленных привычек.

**Ключевые слова.** Дефектолог, умственно отсталый ребенок, навыки, моторика, движение, санитария, гигиена.

The article discusses the idea of correctional and educational work with children with mental retardation, the order that creates the necessary conditions for correct, physical and mental growth, the formation of appropriate habits that ensure the rhythm of life in their development.

**Key words.** Defectologist, mentally retarded child, skill, motor skills, movement, sanitation, hygiene.

**H**ozirgi kunda ijtimoiy ta'minot vazirligiga bo'yсинувчи болалар муассаса тармоqlari tuzilib, ularda болалар 4 yoshdan 18 yoshgacha to'la davlat ta'minotida bo'ladilar. Ko'pincha internat – uyldarda diagnostika guruhlari bo'lib, u yerga yangi kelgan болалар qabul qilinadi. Bundan maqsad – idrok etish qobiliyatları o'sishini o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish, mehnat faoliyatı ko'nikmalarini egallashni aniqlashdan iborat. Shifokorlar va tarbiyachilar xulosalarini hisobga olib 3-4 oydan so'ng bolani uning ruhiy-jismoniy rivojlanganiga mos keluvchi guruhga o'tkazadilar. Tuzatuvchi – tarbiya ishlar tartibi maxsus болалар uylari sharoitida takomillashib boradi va bir necha bosqichdan iborat bo'ladi:

1-bosqich (4 yoshdan 8 yoshgacha). Bolalarda sanitariya-gigiyena ko'nikmalari, motorika va harakatni tartibga solib shakllantiriladi, nutqni o'stirishga, ayniqsa katta e'tibor beriladi, maktab ta'limga bolalarni tayyorlash amalga oshiriladi.

2-bosqich (8 yoshdan 16 yoshgacha). Bolalardagi o'z-o'ziga xizmat qilish va gigiena ko'nikmalari mustahkamlanadi, xo'jalik-maishiy mehnat ko'nikmalari o'zlashtiriladi, hisoblash va elementar savod ko'nikmalari shakllanishiga e'tibor beriladi, nutq o'stiriladi.

3-bosqich (6-18 yosh). Bu yakunlovchi bosqich o'z oldiga ijtimoiy moslashuv vazi-

falarini qo'yadi. Bunda axloqiy, estetik tarbiya, xo'jalik-maishiy, mehnat ko'nikmalarini takomillashtirish, maishiy chamalash bo'limlari mayjud.

Barcha tarbiyaviy ishlarni yo'lga solishning maqsadi turmushda bolalarni mustaqillikka imkonli boricha tayyorlash va yetarli darajada mehnat faoliyatiga o'rgatishdan iborat. Bolalar tarbiyasini yaxshilash ishining asosi ularda mehnat ko'nikmalarini va ijtimoiy moslashuvni shakllantirish uchun bolalardagi ijobiy imkoniyatlarni aniqlashdir.

Hozirgi vaqtga kelib, L.S. Vigotskiy aytgan tarbiyaning zaruriy shartlari belgilandi:

1. Chuqur aqliy qoloq bolalar bilan korreksiya ishini ancha barvaqt boshlash.

2. Qulay oilaviy vaziyat va maxsus muassasalar bilan yaqin aloqada bo'lish.

3. Bolaning bor imkoniyatlari va uning yoshiga javob beruvchi maxsus dasturlar va maxsus metodlarni qo'llash.

Bu shartlarni tushuntirib o'tamiz. Barvaqt korreksiya chuqur aqliy qoloq bola uchun muhim ahamiyatga ega.

Ikkinci shart-oilaviy tarbiyaning to'g'ri tashkil qilinishidir. O'rta og'ir darajadagi aqli zaif bolani tarbiyalash uchun oilada qulay sharoitlar yaratilishi kerak.

Biroq ota-onalar defektologlar yordamiga muhtoj bo'ladilar, ularda o'z bolasini qanday tarbiyalash bo'yicha bilim va ko'nikmalar yetishmaydi. Ko'pincha ota-onalar hamma ishlarni, hatto bolaning bu ishlarni bajarishga qurbi yetadigan ishlarni ham o'zlarini bajarishga urinadilar.

O'rta og'ir darajadagi aqli zaif bolani ko'pincha "boshqarilishi kerak bola" deb ataydilar, chunki u mustaqil ravishda turli harakatlarni bajarishga o'rgana olmaydi u sog'lom bolalarga qaraganda ancha ko'proq yordamga muhtoj bo'ladı. Tarbiya katta sabr-toqatni talab qiladi, ko'p vaqt sarflanadi, ammo vaqt o'tishi bilan barcha o'zlashtirilgan ko'nikmalar bolani mustaqillikka yo'llaydi. Bolani oilada ko'p narsalarga o'ziga-o'zi hizmat ko'rsatishga, uddalay oladigan topshiriqlarni bajarishga, atrofdagilar bilan muomala qilishga o'rgatish kerak. Agar oilada kichik yoshli bola bo'lsa uni o'ynashga, sayrga chiqishga (ota-onna nazorati ostida) undash kerak. Bola uddasidan chiqadigan o'yinlar o'rta og'ir darajadagi aqli zaif bolaga yaxshi ta'sir ko'rsatadi, chunki u taqlid qilishni yaxshi ko'radi.

Kichik yoshdagagi (4-8 yoshli) o'rta og'ir darajadagi aqli zaif bolaning rivojlanishida hayotiy maromni ta'minlovchi to'g'ri, jismoniy va aqliy – ruhiy o'sishi uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratuvchi tartib, katta ahamiyatga ega. Tartib maqsadga muvofiq odatlar shakllanishiga yordam beradi.

Kichik yoshdagagi o'rta og'ir darajadagi aqli zaif bolada shakllanishi zarur bo'lgan ko'pgina maishiy ko'nikmalar yo'q bo'ladı. Tartibga rioya qilish bu vazifani yengillashtiradi. Ular uchun taxminiy kun tartibini tuzish va amal qilishni o'rgatib borish zarur.

Agar uyqudan turish soat 8:00 da bo'lsa, bolalarni soat 20:00 da uyquga yotqizish zarur, chunki ular ertangi kun uchun yaxshi dam olishlari va kuch to'plashlari kerak. Kichik yoshdagagi o'rta og'ir darajadagi aqli zaif bolalarni kuzatib borish, ular turmushda o'ta yordamga muhtojliklarini qayd etish uchun asos beradi, ular ko'pincha irkit yuradilar, ularga doimiy yordam zarur, mustaqil ovqat yeya olmaydi. Ularga shularning hammasiga o'rgatish kerak. Vaqt o'tishi bilan o'zlashtirgan ko'nikmalar turg'un va odatiy bo'lib qoladi. Bolaga yordam berib borish asta-sekin bunday yordamni kamaytirib borish va o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ishlarni borgan sari ko'proq uning o'zini zimmasiga yuklash zarur. Quyidagi qoidalarga rioya qilish yaxshi natijalar beradi.

Kunni o'tkazish uslubi.

Bolani uyqudan turg'azishni signal bo'yicha amalga oshiramiz.

---

Bu o'rinda past ovoz bilan aytilgan "Malohat o'rningdan tur!" kabi jumla bo'lishi mumkin. Agar bola signalga o'rganmagan bo'lsa, unda bu signal qo'shimcha takrorlanishi va qo'l bilan astagini yelkasiga tegib qo'yish mumkin. Bolada ayni bir vaqtda uyqidan uyg'onish odati paydo bo'lishi kerak. Uyqidan turgan bolaga erkalab "Assalomu aleykum" deb o'rgatish lozim.

Jismoniy mashg'ulot.

Ertalabki badan tarbiya – bolalarni jismoniy tarbiyalashning oddiy va samarali vositasi. Uni qanday bajarilishini o'yin shaklida ko'rsatib berish mumkin.

Masalan: "Malika kichkinagina, kichkinagina" – katta yoshli odam cho'qqayib o'tiradi, hamda iloji bo'lsa shu so'zni ham takrorlab harakatni takrorlaydi. "Malika o'sib katta bo'ldi" – deydi tarbiyachi yuqori oyoq uchida ko'tarilib, qo'llarini yuqoriga ko'tarib.

"Endi yuguramiz va qo'llarimizni silkitamiz", – deydi boshqaruvchi, bola esa harakat va so'zlarni (agar gapira olsa) takrorlaydi. Badan tarbiyani "Quyoncha" o'yinini qo'shiq bilan o'tkazish mumkin. Kulrang quyoncha o'tirar quloqlarini qimirlatib. Mana bunday, bunday qilib quloqlarini qimirlatib, cho'nqayib o'tiramiz va quloqlar yoniga barmoqlarni qo'yib qimirlatamiz.

Quyoncha o'tirib sovuq qotdi, uning qo'llarini isitamiz. O'rnimizdan turamiz va chapak chalamiz.

Chapak, chapak, chapak chalib, qo'lchalarni isitamiz. Quyoncha o'tirib sovuq qotdi, u sakrab-sakrab yurish kerak.

To'p-to'p, to'p,

Quyoncha sakraydi xo'p.

Har bir mashqni 3-4 marta takrorlaymiz. Butun mashg'ulot 10 minut davom etadi.

Mashqlarni quyidagi ketma-ketlik bo'yicha bajarish mumkin:

1. Qo'llarni oldinga, yon tomonlarga cho'zib belga qo'yib yurish.
2. Asosiy holat-tik turish. Boshni pastga, yuqoriga bukish.
3. Qo'llarni bosh ustiga ko'tarish, tana bo'ylab pastga tushirish.
4. Oyoqni oldinga qo'yish, joyiga qo'yish, boshqa oyoqni oldinga qo'yish, joyiga qo'yish.
5. Yugurish.
6. Ohista qadam tashlab yurish.

Mashqlar vaqtida qanday to'g'ri nafas olish kerakligini ko'rsatish lozim. Buning uchun har bir mashqdan so'ng nafas mashqini o'tkazish kerak. "Nafas olamiz" va "nafas chiqaramiz" so'zları aytilib turiladi. Agar sharoit imkon bersa, mashqlarni ochiq havoda o'tkazish foydali bo'ladi.

Sanitariya-gigiyena ko'nikmalarini singdirish.

O'rta og'ir darajadagi aqli zaif bolani tarbiyalashda sanitariya-gigiyena ko'nikmalarini singdirish muhim o'rin egallashi kerak. 4 yosh bola turmushda juda noshud bo'ladi, ko'pincha isqirt yuradi, unga doimiy yordam kerak. Sanitariya va gigiyena ko'nikmalarini singdirish deganda, bolaning kiyimlari va poyafzallarini ozoda tutish bilan, ovqat yeyish hamda boshqa rejimli holatlar bilan bog'liq harakatlar ko'nikmalarini nazarda tutish kerak.

Bolani kuydagilarga o'rgatish kerak:

1. Yuvinish: qo'llarini, yuzini, quloqlarini, bo'ynini yuvish.
2. Sovundan, sochiqdan foydalanish.
3. Kiyinishni, yechinishni, oyoq kiyimni kiyishni, yechishni bilish.
4. Yechilgan kiyimni ma'lum joyga qo'yish, kiyimni va poyabzalni ozoda saqla (poyafzal changini artishni bilish).

5. Tarelkadan, qoshiqdan, piyoladan foydalanishga, to'g'ri ovqatlanishga o'rganish.
6. Stol va stuldan foydalanishni o'rganish.  
Bola quyidagilarni bilishi, nomini ayta olishi va ko'rsata bilishi kerak:
  1. O'z tanasi qismlarini: boshi, og'zi, burni, ko'zlari, quloplari, bo'yni, peshonasi, qo'llari, barmoqlari, oyoqlari, ko'kragi, qorni va belini.
  2. Sanitariya va gigiyena buyumlari: sovun, sochiq va shu kabilar.
  3. Kiyim va poyabzal buyumlari: qalpoq, ro'mol, ko'ylak, qizlar ko'ylagi, mayka, payroq va shu kabilar.
    4. Ovqatlanish uchun zarur buyumlar: tarelka, kosa, qoshiq, piyola va shu kabilar.
    5. Ovqat nomlari: sho'rva, palov, mastava, lag'mon, choy, sharbat va shu kabilar.
    6. Kerakli oziq-ovqatlar: non, qand, tuz, sut va shu kabilar. Barcha ko'nikmalar sayr vaqtida, ovqat vaqtida bu harakatlar qanday amalga oshirilishini, qanday buyumlardan foydalanishi bevosita ko'rsatish bilan shakllantiriladi.

Tadqiqotimizda o'rta og'ir darajadagi aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan ish ularning nutqini o'stirish, predmetli faoliyatini, o'z-o'ziga xizmat qilish malakalarini rivojlantirish, maqsadga yo'naltirilgan bo'lish lozimligiga yana bir karra amin bo'ldik va quyidagi xulosalarga keldik. Aqli zaif bolalar bilan korreksion ta'lim erta boshlash bolaning rivojlanishida ijobji siljishlarga olib keladi va uning taqdiriga ta'sir ko'rsatadi. Erta korreksion ish faqatgina bolaning rivojlanishiga ijobji ta'sir etuvchi vositagina bo'imasdan, balki diagnostikasi ham ishonchli vositadir. Chunki faol pedagogik ta'sir orqali uzoq vaqt har bir bolaning barcha imkoniyatlari va xususiyatlari, qo'shimcha va ikkilamchi nuqsonlari aniqlanadi. Natijada. maktab ta'llimiga vaqt kelganda bola o'qiydigan muassasa turli xatosiz tanlanadi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Akramova X. (2020). *Didactic Foundations of Labor Activity for Children with Intellectual Disabilities*. Архив научных публикаций JSPI, 7(1). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/682](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/682).
2. Akramova, X. (2020). КОРРЕКЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ У ДЕТЕЙ С УМСТВЕННОЙ ОСТАЛОСТЬЮ В СЕМЕЙНЫХ УСЛОВИЯХ. Архив научных публикаций JSPI, 15(1). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/918](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/918).
3. Muzaffarova X. (2020). *Identification of mentally retarded children: Identification of mentally retarded children*. Архив научных публикаций JSPI, 5(1). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/556](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/556).
4. Muzaffarova X. (2020). *Intellektida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdag'i bolalarning rivojlanish xususiyatlari*. Архив научных публикаций JSPI, 1(09), 9. извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/2708](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/2708).
5. Мозговой В.М. Основы олигофренопедагогики: учеб. пособие для студ. сред. учеб. заведений – Издательский центр Академия, 2010. 9-стр.

---

**Raxmon ESHIMOV,**  
Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti o'qituvchisi

## **6-SINF “FIZIKA” DARSЛИGINI IMKONIYATI CHEKLANGAN TA’LIM OLUVCHILAR UCHUN KOMPYUTER IMITATSION MODELLAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISH**

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan yoshlar ta'limida 6-sinf "fizika" darsligini kompyuter imitatsion modellar asosida elektron uslubiy qo'llanma yaratish va undan foydalanishi yoritib berilgan. Ushbu elektron uslubiy qo'llanmadan maxsus matab-internatlar o'quv jarayonida foydalanish mumkin.

**Kalit so'zlar.** Kompyuter imitatsion model, zamonaviy axborot texnologiyalari, algoritm.

В данной статье освещено создание и использование электронного методического пособия на основе компьютерных имитационных моделей учебника "физика 6 класс" в образовании молодежи с ограниченными возможностями. Данное электронное методическое пособие может быть использовано в учебном процессе специальных школ-интернатов.

**Ключевые слова.** Компьютерная имитационная модель, современные информационные технологии, алгоритм.

In this article, the creation and use of electronic methodical manual based on computer simulation models of textbook "6th grade physics" in the education of young people with disabilities is highlighted. This electronic methodological manual can be used in the educational process of special boarding schools.

**Key words.** Computer simulation model, modern information technology, algorithm.

**D**avlatimizning ustuvor siyosati yosh avlodni aqlan teran, jismonan sog'lom, ma'nан yetuk, har tomonlama rivojlangan komil inson qilib voyaga yet-kazishdan iboratdir. Mamlakatimizda AKT sohasida ham keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5099-son qarori tub o'zgarishlar bo'lishiga sabab bo'ldi.

AKT jamiyat hayotining ko'plab sohalariga, shu jumladan, ta'lim, o'qish va bandlikka ta'sir ko'rsatadi, alohida ehtiyojli va sog'ligida turli chekllovleri bor odamlar uchun bu qimmatli vositadir. Hozirgi bilim va axborot jamiyatida sog'ligi tufayli chekllovleri bor va alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilar AKT dan foydalanish borasida tez-tez to'siqlargacha uchrab turadi.

Hozirda o'rganilgan tajribalarimidan kelib chiqqan holda, 6-7-sinf fizika fanidan dars jarayonida foydalanishga mo'ljallangan o'quv uslubiy qo'llanma yaratildi. O'quv uslubiy qo'llanma zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanilgan kompyuter imitatsion